



DEMOCRACY AND THE TRANSFORMATION OF SOCIAL IDEAS

Umidjon Musayev

Associate Professor, PhD

Mamun University

Urgench, Uzbekistan

e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: Democracy, idea, social ideas, transformation, justice, equality, New Uzbekistan, society and state.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: The article focuses on the issues of democracy and the transformation of social ideas. At the same time, the classification and types of social ideas that are important in the formation of a democratic society are highlighted.

DEMOKRATIYA VA IJTIMOIY G'OVALAR TRANSFORMATSIYASI

Umidjon Musayev

dotsent, PhD

Ma'mun universiteti

Urganch, O'zbekiston

e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Demokratiya, g'oya, ijtimoiy g'oyalar, transformatsiya, adolat, tenglik, Yangi O'zbekiston, jamiyat va davlat.

Annotatsiya: Maqolada demokratiya va ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi masalalariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda demokratik jamiyat shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy g'oyalar klassifikatsiyasi va turlari yoritib berilgan.

ДЕМОКРАТИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ИДЕЙ

Умиджон Мусаев

Доцент, доктор наук

Университет Мамун

Ургенч, Узбекистан

E-mail: musaev_umidjon@mamunedu.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Демократия, идея, социальные идеи, трансформация,

Аннотация: Статья посвящена вопросам демократии и трансформации

справедливость, равенство, Новый Узбекистан, общество и государство.

социальных идей. При этом выделены классификация и виды социальных идей, имеющих важное значение в формировании демократического общества.

KIRISH. Dunyo miqyosida yuzaga kelgan global jarayonlar va tahlikali vaziyatlar hamda yuzaga kelgan global muammolar va kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlar ogohlikni oshirishni taqozo etmoqda. Achinarli haqiqat shundaki, umuminsoniy qadriyatlar asta-sekin muzeylar va badiy asarlar o‘rin olib bormoqda va ularni anti madaniyat unsurlari siqib chiqmoqda, texnologik taraqqiyot va internet tarmoqlaridagi ijtimoiy xavf-xatarlarni targ‘ib etuvchi materiallarning ko‘payishi jamiyat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, milliy o‘zligimizni o‘zida mujassam etgan milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar tobora ko‘rkam va dabdabali bo‘lib bormoqda, shu bilan birgalikda milliy qadriyat va an’analarimizning unsurlarning asl mohiyati va mazmuni yo‘qolib bormoqda. Qolaversa, g‘arblashuv bahonasida axloqiy me’yorlarning buzilishi jamiyatning ijtimoiy, mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy tuzilishining parchalanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida demokratik g‘oyalar evolyutsiyasini o‘rganishning ijtimoiy-g‘oyaviy va uslubiy xususiyatlarini yoritish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli asari, nutq va ma’ruzalaridan hamda olim Faxriddin Musayevning “Demokratik jamiyat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari” asari, SH. Turayev, A. Utamurodov, U..Musayevlarning “Milliy g‘oya va mafkuralar tarixi” nomli o‘quv qo‘lanmasi, Ibadulla Ergashevning “Siyosat falsafasi” nomli asaridan hamda “Milliy istiqlol mafkurvsi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug‘at)” izohli lug‘atdan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun hizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik sotsiologik tahlil, dialektik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. Butun tarix va qadim zamonlarda ham chinakam demokratik jamiyat barpo etishga oid yuksak g‘oya va tushunchalar ilgari surilgan. Ba’zida demokratik jamiyat barpo etishda nazariy nuqtai nazarga asoslangan maqtovga sazovor maqsadlarga erishish uchun evolyutsion yoki inqilobiy yondashuvlar qabul qilingani sir emas. Demokratik jamiyatning barpo etilishda asosan G‘arb demokratiyasini o‘sish sur’atlari ko‘rsatiladi. Jamiyat va davlatda demokratik tartiblarning joriy etilishi va amalga oshirilishi birdaniga yoki o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan hodisa emas.

O‘zbekistonda demokratik taraqqiyotni jadallashuvi jarayonida vujudga keladigan o‘zida o‘zligimizni aks ettiradigan ijtimoiy g‘oyalarning transformatsiyasi natijasida shakllanadigan milliylikni tarannum etuvchi ijtimoiy g‘oyalar siraiga quyidagilarni kiritish mumkin[4, 126-133].

Har qanday jamiyat yoki davlat ichida demokratik tamoyillarni qaror toptirishda xalq o‘zligini shakllantiruvchi milliy qadriyatlar, tushuncha va an’analar bilan bir qatorda, ularning kundalik hayotida namoyon bo‘ladigan milliy va umuminsoniy tushuncha va qadriyatlar qanchalik o‘rin egallaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, demokratik g‘oyalarning nechog‘lik muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, ularning jamiyat va davlat hayotida shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik tushunchalarni ijtimoiy hayot tarziga aylantirish demokratik jamiyatning hal qiluvchi shartidir.

Yangi O‘zbekistonnni demokratik davlat poydevori sifatida ko‘rilishi, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tabiri bilan aytiganda, - “Biz o‘n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “Inson – jamiyat –davlat” tamoyiliga o‘zgartirdik. Yurtimizda “Davlat – inson uchun” g‘oyasi amal qila boshladi. Qonun va adolat ustuvorligini ta’minalash – Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta’minalash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish ishlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud hokimiyatining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirmoqdamiz. Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli huquqiy kafolat yaratilmoqda. Inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o‘zgardi. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to‘liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani qabul qildik. O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylangani olib borayotgan siyosatimizning yuksak xalqaro e’tirofidir”[1, 46-48.]. Bir so‘z bilan aytganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar “ilohot-islohot uchun emas, islohot-insonlar uchun” tamoyilining to‘liq ro‘yobini qo‘rish mumkin.

Demokratiya tushunchasini olim Ibadulla Ergashev quyidagicha ta’riflaydi, - “G‘arbona va SHarqona demokratiyani alohida-alohida talqin etish mumkinligi, bu o‘z navbatida demokratiyaning umumiy mohiyatiga soya solmaydi. Aksincha, uning o‘ziga xos milliy-ma’naviy xususiyatlarini farqlash bilan bog‘liq”[5, 17], Dj.Dyui, - “... demokratiya avvalambor siyosiy boshqaruv usuli emas, balki aniqrog‘i yetakchi ravishda jamiyat hayotini tashkil qilish usuli, turmush tarzidir”[6, 118-119] deb izohlagan. Albatta olimlarning xulosalariga qo‘shilgan holda demokratiya, uning asoslari u yashayotgan jamiyat o‘zligiga aylanmog‘i zarur, shundagina ko‘zlangan maqsdlarga yakdillik bilan davlat va xalq birligida erishiladi. Davlat demokratiyasining yuzi bu xalq hayoti ijtimoiy harakterdagi tuzilishidir.

NATIJALAR. G‘oyalarning paydo bo‘lishi va ularning klassifiqatsiyasi haqida professor olim Ibadulla Ergashev shunaday fikrlar bildirgan, -“G‘oyaning jamiyat ijtimoiy hayotidagi mohiyati, uning jamiyat ijtimoiy xarakterini aks ettirishida. Dastlab ijtimoiy g‘oyalar ham yakka shaxs ongida shakllanadi va omma qatlamiga yoyiladi, ularning kundalik turmush tarziga aylanadi”[7, 32-33].

Dunyo miqyosida keng e'tirof etilgan ijtimoiy tushunchalarni shakllantiradigan demokratiya tamoyillar quyidagicha o'rmatilgan va qabul qilingan:

Davlat hokimiyati bo'linishi tamoyili;

Oliy boshqaruv organlarini tashkil etishda ochiq, pragmatik, adolatli va shaffof saylovlar o'tkazish tamoyilining qaror topganligi;

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi;

Matbuot, so'z va fikr erkinligi;

Konstitutsiyaviy qoidalar va qonunlar bilan mustahkamlangan vijdon va din erkinligi kafolatlanganligi;

Oliy vakillik institutlarining xalq oldida javob beradigan adolatli hukumatni barpo etilganligi;

Oliy davlat hokimiyati organlarini, xalq vakillari, shu jumladan Prezidentni, Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining saylab qo'yilish tamoyili;

Milliy va jamoat manfaatlariga taalluqli muhim masalalar bo'yicha referendumning joriy etilganligi;

Iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiyotni davlat siyosatidan ajratilganligi;

Saylangan oliy davlat hokimiyati va tayinlangan mansabdor shaxslarning saylovchilar oldidagi javobgarligining muqarrarligi;

Siyosiy partiyalar xilma-xilligi;

mulkchilik shaklining turli ko'rinishlarining mavjudligi va davlat muhofazasi hamda daxlsizligida ekanligining ta'minlanganligi.

Millat va xalqning o'ziga xosligini o'zida mujassam etgan demokratik g'oyalarga asoslangan asosiy milliy g'oyaning shakllanishining ming yillik tarixi davomida shakllangan ijtimoiy-siyosiy me'yorlarga asoslanadi. Bu adolat, farovonlik va erkinlik bilan ajralib turadigan demokratik huquqiy jamiyat qurishning mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qiladi[2].

Maqolada demokratiyaning umuminsoniylik va milliylik tushunchalari quyidagicha tasniflandi.

Insonning jamiyatdagi rivojlanish darajasiga asoslangan demokratiyani yorituvchi ijtimoiy tushunchalar:

- odob, xulq-atvor va axloq tushunchalari;
- mehr-oqibat;
- ezgulik va mehribonlik;
- Xursandchilik va muvaffaqiyat.

Jamiyatda o'zaro tenglikni rivojlantirishga oid demokratiyani yorituvchi ijtimoiy tushunchalar:

- adolat va tenglik;
- majburiyat va axloqiy ong;
- Burch va vijdon;
- Or va nomus;
- Kechirimlilik va shavqat;
- kechirimlilik va hamdardlik;
- Qadr-qimmat.

Jamiyatdagi insoniylik darajasini yaxshilashga qaratilgan demokratiyani yorituvchi ijtimoiy tushunchalar:

- insonparvarlik va mehr-oqibat;
- Jo‘mardlik va fidoyilik;
- Vatanparvarlik va mardlik
- milliy o‘zlikni anglash;
- oilaparvarlik va mehnatsevarlik;
- do‘stonalik va tinchliksevarlik;

Ijtimoiy hayot qoidalarini belgilovchi demokratiyani yorituvchi ijtimoiy tushunchalarga quyidagilar kiradi:

- poklik va halollik;
- haqiqat (amalda) va halollik;
- ijodkorlik;
- qoniqish va tenglik;
- xayrixohlik va madaniyatatlilik;
- kamtarlik;
- tirishqoqlik va vazminlik;
- To‘g‘rilik(amalda) va rostgo‘ylik;
- Iffatlilik va hayolilik;
- Qanoatlilik va insofililik;
- Shirinso‘zlik va xushxulqlilik;
- Kamsuqumatlilik va kamtarlik;
- Bosiqlik va g‘ayratlilik.

Jamiyatdagi ijtimoiy g‘oyalarning sharqona milliy xususiyatlariga ko‘ra:

- O‘zaro hurmat va yuzxotirlik;
- Andisha va andik (o‘z-o‘zini chetga tortish);
- Ochiq qo‘llik va saxovatlilik;
- Vafo va sadoqat;

- Masuliyatlilik va oriyat;
- Xalq sevarlik.

G‘arbonalikni o‘zida targ‘ib etuvchi jamiyatdagi ijtimoiy g‘oyalar:

- Bir so‘zlik va cho‘rt kesarlik;
- Dangallik va qat’iyatlilik;
- Yakkalik va individuallik;
- Yorqin hayot yoki qosmopolitizm;
- O‘z-o‘zing uchun yashash va egotsentrizm;
- Mustaqillik(shaxslar misolida), erkinlik va ozodlik.

Umumisoniy g‘oyalar – o‘zining mazmun-mohiyati va miqyosiga ko‘ra barcha insoniyatning ongi-tafakkuri va qalbida chuqr o‘rin egallagan, har bir inson va xalqlar uchun yuksak axloqiy fazilatlari o‘zida mujassam etgan, bashariyat olamining porloq kelajakiga hizmat qiladigan g‘oyalar mmajmuyiga aytildi[3, 149b.].

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yangi O‘zbekiston qurilishida ijtimoiy g‘oyalarning ahamiyati va vazifasi, demokratik jamiyat tamoyillari bilan ijtimoiy g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, milliy va umuminsoniy g‘oyalarning ijtimoiy tushunchalarning o‘zgarishiga ta’siri, ularning ijtimoiy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liqligi, demokratik jamiyat doirasida ijtimoiy g‘oyalarning namoyon bo‘lishi, ijtimoiy me’yor va g‘oyalarning dolzarbli, ularning rivojlanishidagi, shuningdek, millatning rivojlanishidagi salohiyatini oshirish, shuningdek jamiyat hayotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan buzg‘unchi va konstruktiv g‘oyalar va undan kelib chiqadigan muammolarning oldini olishi bilan ahamiyatlidir. Demokratik g‘oyalar va ijtimoiy g‘oyalar jamiyat va davlat rivojlanishing tub negiz asoslarini yoritib beruvchi unsurlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. YAngi O‘zbekiston Strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 46-48.
2. Musayev Faxriddin. Demokratik jamiyat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2007.
3. Milliy istiqlol mafkurysi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug‘at). – T. YAngi asr avlodи, 2002. – B. 149.
4. Тураев Ш, Утамуродов А, Мусаев У. Миллий ғоя ва мафкуралар тарихи ўқув кўланма. –Т.: 2021. – Б. 126-133.
5. Дьюи Дж. Открывая демократию заново. 1. // Полим. 2003. № 5. – С. 17.
6. Ибадулла Эргашев. Сиёсат фалсафаси. –Т.: Академия, 2004. – Б. 118-119.
7. Ибадулла Эргашев. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. –Тошкент: Наврўз нашриёти, 2005. – Б. 32-33.